



15. Sonlarni qo'shish (21 + 39)

Yondosh mavzu:
Hamkorlikdagi mehnat


O'nliklar va birliklar,
xona birliklari.



Shakllari xuddi
shu tartibda
joylashgan
kvadratni toping.



1. Yechishni tushuntiring.



$$\begin{aligned} & 3 \text{ o'nl. } 2 \text{ birl. } + 2 \text{ o'nl. } 8 \text{ birl. } = \\ & = (3 \text{ o'nl. } + 2 \text{ o'nl.}) + (2 \text{ birl. } + 8 \text{ birl.}) = \\ & = 5 \text{ o'nl. } 10 \text{ birl. } = 6 \text{ o'nl.} \end{aligned}$$



2. Misollarni grafik ko'rinishda yeching.

$22 + 18$

$31 + 29$

$44 + 16$

$83 + 17$



3. Birinchi olma daraxtidan 39 kg olma, ikkinchi olma daraxtidan undan 21 kg ko'proq olma terildi. Ikkita olma daraxtidan jami necha kilogramm olma terilgan?



4. Jadval yordamida masala tuzing. Daftaringizga uning yechimini yozing.

Olxo'ri	Shaftoli	O'rik	Jami daraxtlar
14	12	24	?



5. Tenglamalarni og'zaki yeching.

$m - 42 = 18$

$x + 4 = 60$

$t - 27 = 53$

$70 - a = 50$

$2 + y = 40$

$80 - n = 4$

15. Sonlarni qo'shish (21 + 39)



6. Bolalar qushlar uchun in yasashdi, ulardan 13 tasini maktab bog'iga, 27 tasini shahar ko'chalariga osib qo'yishdi. Bolalar qushlar uchun jami nechta in yasashdi? Maktab bog'iga shahar ko'chalaridagidan nechta kam in osib qo'yilgan?



7. Jadvallarini to'ldiring.

+	17		27	37
23	40	70		
33				
	60			
13				

-	50	60		90
7	43			
				87
5			65	
6				



8. To'g'ri to'rtburchakning eni 14 daftar katagiga teng, bo'yi esa undan 2 katak ko'proq. Bunday to'g'ri to'rtburchakning perimetri nechta katak bo'ladi? O'lchamlarni santimetrlarga almashtiring.



9. Namunaga qarab misollar tuzing va ularni yeching.

Namuna:

$23 + 27$	$27 - 23$
$56 + 14$	$56 - 14$
$36 + 24$	$36 - 24$

$34 + 46$	
$12 + 28$	
$57 + 13$	



10. Birinchi nok daraxtidan 24 kilogramm nok, ikkinchi nok daraxtidan undan 16 kilogramm ko'proq nok terib olindi. Jami qancha nok terilgan?